



Harflarni o'z o'rniغا qo'ysangiz, kasb turlaridan birini topasiz.

UMANHISD



Chin do'st

Nasiba Erxonova

Qadim zamonda emas, biz yashab turgan kunlarning birida o'zimizning mamlakatda ishlab chiqarilgan mashinalar har tomondan yo'lga tushishibdi. Yurtning turli chetlaridan manzil tomon oshiqayotgan mashinalari taqdir taqozosi bilan bir yo'lda uchrashib, oldinma-ketin ketaverishibdi. Bir payt mashinalar dam olish uchun bir daraxt tagida to'xtashibdi. Shunda uch ulov bahs boylashib qolibdi:

– Men ikkovingdan ham kuchliman, – debdi qolganlariga nisbatan kattaroq ulov. – Tog'da, qorda, shaharda – hamma joyda qiynalmasdan yuraman. Qaddim baland, hurmatim, obro'-e'tiborim ham hammangiznikidan yuqori, – deya kerilibdi.

Buni zimdan kuzatgan bejirim uzungina ulov ko'zlarini suzib:

– Hammadan chiroyli ekanimni bilib turibsizlar-u, tan olgingiz kelmaydi-da. Aslida hamma mashinalarning menga havasi keladi, – debdi.

Oliftagarchilik qilgan ulovning oxirgi gaplarini safdoshlari eshitmabdi ham.

Uchinchi ulov esa indamabdi. "Kimning qanaqaligini vaqt ko'rsatadi", – deya jimgina yo'lga tushibdi.

Uchala mashina yana yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Bu orada mag'rur katta ulovning yoqilg'isi kamayib qolibdi. Bundan g'azablangan ulov to'xtab-to'xtab yura boshlabdi. Bejirim uzungina ulov esa ajab bo'libdi degandek, labini burgancha o'tib ketibdi. Uchinchi ulovning esa ko'z oldiga o'zidan oldin ishlab chiqarilgan ulovlar kelibdi. Ular doimo hammaga yaxshilik qilish kerak, deya uqtirisharkan. Shunda u o'zining zaxirasidagi yoqilg'isini Katta ulovga quyibdi. U bo'lsa barcha aytgan gaplaridan pushaymonligini yashirmabdi.

Ular yana yo'lga tushibdilar. Tez-tez oynalarini



yuvishni, tozalikni yaxshi ko'radigan bejirim ulovning suvi tugab qolibdi. Biroq g'ashi kelsa-da, mashinalardan yordam so'rashdan ko'ra kir yuzi bilan ketaverishni afzal bilibdi. Uchinchi ulov dilni og'rituvchi gaplarini unutib, unga suv beribdi. Bundan xursand bo'lgan ulov tezda yuzlarini yuvib, yana chiroyini ko'z-ko'z qilibdi. Shunda Katta ulov qattiq signal chalibdi hamda uchinchi mashinani oldiga chiqib shunday debdi:

– Do'stim, bizni kechir, aslida ichimizda eng kuchli, kamtar va mehriboni sensan.

Ikkinci mashina ham boshini egib:

– Dilingni og'ritgan bo'lsak kechir, – debdi g'ururini bir chetga surib.

Kamtar, mehribon mashina maqtovdan havolanmay, yo'lida davom etibdi.





Berilgan iboralarni partadoshingiz bilan muhokama qiling. Ular ishtirokida bittadan gap tuzing.

manzil tomon oshiqayotgan

taqdir taqozosi bilan

ko'zlarini suzib qo'ydi

tan olgingiz kelmaydi

labini burgancha o'tib ketibdi

Maqollar orasidan hikoya mazmuniga mosini toping.

Yaxshiga aytsang, bilar,
Yomonga aytsang, kular.

Kamtarga kamol,
manmanga zavol.

Yaxshi – el g'amida,
Yomon – o'z g'amida.



She'riy topishmoqlarning javobini toping.

O'zi kattakon bino,
Ishlangan xo'b mustahkam.
Quruqda yurmas aslo,
Uchmaydi osmonda ham.
Faqat suvda suzadi,
Daryolarda kezadi.
Qani, do'stlar, bu nima?
O'zbekcha nomi ...



Yurar ko'pincha sekin,
Payt kelsa, ekar ekin.
Suv ichar keragida,
O't yonar yuragida.
Ho'kiz emas, yer haydar,
Ko'rganlar rahmat aytar.
Uning ishi juda zo'r,
Nomi bo'lsa ...

O'zing yursang, yuradi,
To'xtasang, jim turadi.
Minsang, uchib ketadi,
Uzoqlarga eltadi.
G'ildiragi ketma-ket
Bu – uchqur ...



Paxtazorga kema kelar,
 Bilasizmi, nima qilar?
 Ustida bor katta qorni,
 Yaxshi ko'rар paxtazorni.
 Paxtalarni ho'plab o'tar,
 Qorni to'ygan paytda to'kar.
 Haydovchiga bor xonasi,
 Nomi



**Odamlar qadimdan ot qo'shmasdan o'zi.
 yuradigan arava yasashni orzu qilishgan.
 Buning uchun ular nimalar o'ylab topishmadi
 deysiz. So'ngra «avtomobil» (yunoncha so'z
 bo'lib, o'zbekchada «o'zi yuruvchi» ma'nosini
 anglatadi) deb ataluvchi g'aroyib qurilmani
 ixtiro qilishdi.**






1. Nima deb o'ylaysiz hikoya orqali muallif qanday g'oyani ilgari surgan?
2. Hikoya qahramonlariga qanday ta'rif berish mumkin?
3. Aytingchi, siz hikoya qahramonlariga aylanib qolsangiz qaysi ishni takrorlashni xohlar edingiz? Nima uchun?
4. Hikoyani avval o'qigan qanday ertakka o'xshatish mumkin?
5. Uch ulovni chin do'st deb atasa bo'ladimi?



Hikoyani o'qib, mazmunini so'zlab bering.
Ota-onangiz yordamida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar haqida ma'lumot to'plang.



1. Nima deb o'ylaysiz hikoya orqali muallif qanday g'oyani ilgari surgan?
2. Hikoya qahramonlariga qanday ta'rif berish mumkin?
3. Aytingchi, siz hikoya qahramonlariga aylanib qolsangiz qaysi ishni takrorlashni xohlar edingiz? Nima uchun?
4. Hikoyani avval o'qigan qanday ertakka o'xshatish mumkin?
5. Uch ulovni chin do'st deb atasha bo'ladimi?



Hikoyani o'qib, mazmunini so'zlab bering.
Ota-onangiz yordamida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar haqida ma'lumot to'plang.